



1- SHO‘BA: O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FANLARINI INTENSIV O‘QITISH METODIKASI

TALABALARNING MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna
Pedagogika fanlari doktori, Namangan
davlat pedagogika instituti professori.

E-mail: maxbubaxonsobirova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada talabalarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari, ularning ona tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish, bu o‘rinda kasbiy muhim sifatlar tizimini ajratib ko‘rsatishga qaratilishi, ham tayanch, ham potensial kasbiy mahoratini tashhishlash uchun metodik ta‘minotga e‘tibor qaratish kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: til ta‘limi, til va nutqiy muloqot, kasbiy muhim sifatlar, tayanch va potensial kasbiy mahorat, metodik ta‘minot.

Kirish. Talabaning muloqot qila olish, undan zavqlanish xususiyatini tarbiyalash va shu asosda ularning estetik didini o‘stirish, mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikka erishish, so‘z sehrini his qilishga erishish shular jumlasidandir. Mana shunday muloqot asosida talaba kompetensiyasini rivojlantirish muhim ishlardan hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti natijasida til ham takomillashib borishini inobatga olib, ona tili o‘qitishning yangi tadqiqot metodlari bilan boyitish muammosi dolzarblik kasb etmoqda. Bilim oluvchilarga jamiyat rivojlanish natijasida ona tilimiz sirlarini interfaol va innovatsion metodlar asosida mukammal va milliy-mental jihatdan puxta o‘rganish va o‘rgatish ana shunday zaruriy va dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Umumta‘lim maktablaridan boshlab, oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tili o‘qitilishining uzluksizligini ta‘minlash, talabalarda imloviy-uslubiy savodxonlikni yanada kuchaytirish, til ko‘nikmalari va nutqiy muloqot kompetensiyasini rivoj topgan darajaga ko‘tarish mexanizmlari yaratilganligida,



og‘zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentlikni shakllantirilganda yaqqol ko‘rinadi.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizda milliy va Davlat tili bo‘lgan o‘zbek tili ta’limi mazmuniy va mavzuiy sifat takomili yo‘lida tizimli, aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat yo‘lga qo‘yilmoqdaki, bu borada soha bo‘yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish zarururiyati, ta’limning barcha bosqichlarida, ona tili – o‘zbek tili ta’limi mazmunini modernizatsiyalash[1], oliy o‘quv yurti talabalarida ham o‘z tilida chuqur fikrlash, tinglash, muloqot qila olish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish va mazkur jarayonlarga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta’lim talabalarini har tomonlama komil etib shakllantirishga qaratilgan asosli ilmiy-nazariy fikrlar ko‘plab o‘zbek pedagog olimlari tomonidan qayd etilgan. Jumladan, ped.fan.doktori, prof. U.I.Inoyatov ta’lim sifatini nazorat qilish hamda boshqarishning nazariy va tashkiliy metodik asoslariga diqqat qaratadi va ularning kasbiy-insoniy fikrlashlaridagi omillardan biri til va nutq kompetentligi ekanligini ta’kidlaydi[2]. Metodist olimi M.Sobirovaning fundamental tadqiqotlarida kasbiy mutaxassislikni rivojlantirishda ta’limdagi yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati, yondashuvlarning ta’lim sifatini oshirishdagi nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi[3]. Tadqiqotchi O.A.Abduquddusov tadqiqotlarida [4] yosh va bo‘lg‘usi mutaxassislarga mashg‘ulotlar olib borishda integrativ yondashuvlar masalasi, Sh. Xalikova[5], D.Yuldasheva [6] izlanishlarida nutqiy muloqot masalalari yoritiladi. Bo‘ljak mutaxassislarni kasbiy mahoratli va komil nutq egasi etib tayyorlash muammosi yechimiga karatilgan, asosli yondashuvlar va tafakkur, til va nutq muammosining alohida aspektlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari [7,8,9, 10,11,12] maydonga kelganki, ularda, asosan, kasbiy mahorat shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotchilar Yo‘ldosheva D., Ibragimova G., Azimova I., Ziyodullayeva G. va Murodova A. [13,14,15,16,17] larning izlanishlarida interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ona tili ta’limida lisoniy malakani



rivojlantirishning psixolingvistik asosi, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda qoidalar tizimidan foydalanish, ona tili ta’limida eshitib tushunish malakasining o’rni xususida so‘z boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada oliy ta’lim talabalarining muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, ularning ona tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish, bu o‘rinda kasbiy muhim sifatlar tizimini ajratib ko‘rsatishga karatilishi, ham tayanch, ham potensial kasbiy mahoratini tashhislash uchun metodik ta’minotiga e’tibor qaratish kabi masalalar tahlil qilinadi.

Tahlillar va natijalar. Tahlillar bugun ta’limda, xususan, til ta’limida tub islohotlar amalga oshirilyapgani, o‘qitishdan ko‘zlangan bosh maqsadga erishishning eng optimal va yangi yo‘llarini topish hamda joriy qilish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilyapganini ko‘rsatmoqda. Bilim oluvchining til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi ilmiy-metodik tadbirlar alohida diqqatga molik. Endi tilni faqat aloqa vositasi sifatidagina emas, balki uni benihoya serqirra mohiyatga ega hodisa sifatida o‘qitish va undan favqulodda maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilish malakalarini tarbiyalash tamoyili barqarorlashmoqda. Bu, albatta, til ta’limining bosh maqsadiga tamoman uyg‘un keladigan maqbul tamoyildir, chunki “...til faqat kishilar o‘rtasidagi oddiygina aloqa vositasi emas, balki til egalarining o‘zini qurshab turgan olamni bilish, qo‘lga kiritgan bilimlarini kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir...”

Milliy tilimizni o‘rgatishda o‘zbek xalqining o‘ziga xos hayot tarzi, etnografiyasi va urf-odatlarini uning tilida saqlanib kelayotganligini aniq va ravshan tushuntirish va singdirish uchun tilning o‘rgatish metodologiyasidagi taqqoslash, qiyoslash va umumlashtirish texnologiyalaridan, metodlaridan samarali va natijali foydalanish zarur bo‘ladi. Talaba tafakkuriga til birligi bo‘lgan tushuncha va atamani mohiyatini anglatgan holda joylanishiga ko‘maklashish o‘zbek tili fani o‘qituvchisining zaruriy vazifasi hisoblanadi. Buning uchun oliy ta’lim professor

o‘qituvchisining o‘zi o‘zbek tilida til va nutq ko‘nikmasiga to‘laonli ega bo‘lishi talab qilinadi.

Oliy ta’lim talabalarining muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari bo‘yicha yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, til, nutq odobi o‘zbek millati hayotining mag‘zi hisoblanadi. Qayerda, qaysi davrda, qaysi jamiyatda yaxshi xulq va yaxshi nutqiy jihatlar jamiyat vakillarida qaror topsa, o‘sha jamiyat hayoti ravnaq topadi, turmush sharoiti oshadi, tinchlik-totuvlik hukmronlik qiladi.

Turli yo‘nalishlarda o‘qiyotgan talabalarning ona tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish masalalarida diqqat dastlab kasbiy muhim sifatlar tizimini ajratib ko‘rsatishga karatilishi, asosiy e’tibor ham uning tayanch, ham potensial kasbiy mahoratli shaxsning dinamik o‘ziga xosligini tashhislash uchun metodik nuqtai nazardan ta’minotiga qaratilib, jamlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tabiiyki, muloqotning bir qancha funksiyalari mavjuddir. Ulardan doimiy qo‘llanadigani suhbatdoshlarning o‘zaro bir-biri bilan suhbat bo‘lib hisoblanadi. Bu o‘zaro hol-ahvol so‘rashishdan boshlanib, muloqotning yuqori darajasigacha borishdir. Albatta, muloqotda milliylik ham hukmron bo‘ladi. O‘zbeklarda oddiygina samimiy salom-alikdan tortib, to xayrlashgunga qadar bo‘lgan jarayonlarda ham bunday holatni yaqqol ko‘rish mumkin.

Muloqotning zaruriy jihatlaridan yana biri – u kishini faollikka undaydi. Ayniqsa, ta’lim jarayonidagi muloqot faollikni vujudga keltiradi. Shaxsning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun u so‘z san’atini, nutq odobini puxta bilish lozim bo‘ladi. Ushbu muloqot so‘zlashish yordamida amalga oshiriladi. “Dono xalqimizda so‘zlashish qoidasi, tilga ehtiyotkor bo‘lish, har bir so‘z, har bir jumlaning o‘ylab gapirish, qisqasi – so‘zlash odobi va muloqot madaniyati haqida juda ko‘p ibratli hikmatlar bor. Ulardan birida keltirilishisha, odamning sharafi va iftixori uning madaniy so‘zlashishida ko‘rinadi. Kimda kim so‘zlashish odobiga rioya qilmasa, unda insoniylik ham ko‘rinmaydi. Gap o‘rinli va ma’noli aytilgan

bo‘lsa, uni jim turib tinglamoq foydalidir.” Adabiy til me‘yorlarini egallashda, orfografiya bilan bir qatorda, to‘g‘ri talaffuz ham muhim ahamiyatga ega. Bu narsa bir masalaning ikki tomonidir. Adabiy til talaffuz normalaridan chetlashish o‘zaro fikr olishuvida yozuv chalasavodligi bilan tengdir.

Nutqiy muloqotning tarkibiy qismlari sifatida quyidagi jihatlarni sanab o‘tish kerak:

- a) kommunikativ – axborotni uzatish;
- b) interaktiv – hamkorlikda harakat qilish;
- s) perseptiv – birgalikda idrok etish.

Ona tili ta’limida yuqorida keltirilgan uchala bosqichda ham nuqsonlar kuzatilishi mumkin. Muloqotning dastlabki bosqichi sifatida kommunikativ jarayonni olsak, o‘qituvchi biron-bir mavzuni tushuntirar ekan, eng avvalo, kommunikativ (axborot uzatish) maqsadni oldiga qo‘yadi va talabalardan interaktiv harakatlar (hamkorlikda harakat qilish)ni talab qiladi. Amaliy va seminar mashg‘ulotda va hatto ma’ruza mashg‘ulotda ham o‘rni bilan o‘qituvchi turli savollar bilan talabalarga murojaat qiladi va shu usul orqali ularni tegishlicha baholaydi. Aksariyat talabalar bu borada o‘z faolliklarini ko‘rsatadilar. Biroq shunday talabalar ham uchraydiki, ular uchun darsda qo‘l ko‘tarib javob berish nihoyatda mushkul ish. Majburan turg‘izilgan talaba kommunikativ bosqichdayoq nutq so‘zlashga no‘noqligini isbotlaydi. Yoki har ikki tomon ham birgalikda (interaktiv) harakat qildi ham deylik, ammo bildirilayotgan fikrni birgalikda idrok etmas ekan, mohiyatni birdek anglamas ekan, bu holda muloqotning perseptiv jihatiga putur yetadi. Bu esa talabaning darsni yaxshi o‘zlashtira olmayotganidan darak beradi. Agar muloqot jarayonida mana shu jihatlarga beparvolik bilan qaralsa, natijada bir-birini anglamaslik yuzaga keladi.

Umuman, talabalarining nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish ham kichik-kichik maqsadlarga mos bilim, malaka va ko‘nikmalar ko‘rinishidagi parametrlar sifatida oldindan belgilab chiqilishi kerak. Masalan, dialogdagi replikalar mazmuni ham alohida birliklarni tashkil etadi. Nutqiy muloqot faqat



savol-javoblardangina iborat emas, albatta, suhbatdoshni eshitish, javobdan so‘ng aks savol berish, savolni rad etish, suhbatdoshning savoliga aks savol bilan murojaat etish, uni biror ish-harakatga undash, taklif qilish kabi turli shakllarda va mazmunda o‘tadi. Bunda turfa leksik va grammatik vositalardan, qolip gaplardan foydalaniladi. Shuning uchun nutqiy muloqotni (dialogik nutqni) o‘zlashtirish masalasiga keng yondashish talab etiladi.

Kuzatishlarimizda talabalar tomonidan tuzilib, taqdim etilgan gaplarning ko‘pchiligi mantiqiy bog‘liqliklarga ega. Biroq sintaktik qurilmalarni yuzaga keltiruvchi so‘z va grammatik shakllarning me‘yoriy darajasi to‘liq talabga javob bermaydi. Yordamchi so‘zlarning, grammatik qo‘shimchalarning, ayniqsa, so‘z yasovchi, shakl yasovchi hamda sintaktik munosabat hosil qiluvchi qo‘shimchalarni o‘rinli qo‘llay olinmagan holatlari kuzatildi. Talabalarining ona tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish uchun bilim beruvchi pedagog yoshlarning badiiy kitoblar o‘qishiga, ko‘proq yozma mashqlarni bajarishiga, lug‘atlar bilan ishlashga ko‘nikma hosil qilishga erishishi talab etiladi.

Mamlakatimizdagi oliy ta‘lim dargohlarida tahsil olayotgan bo‘lg‘usi mutaxassislarining lisoniy-nutqiy kompetentligini rivojlantirish ijodkorlikka, konstruktorlik, ratsionalizatorlik, loyihalarni amalga oshirishda, ularni tatbiq etishda, har qanday rasmiy hujjatlar bilan ishlashda, nazorat qilish, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, diagnoz va tahlil kilishda milliy va umumxalq, davlat tili maqomi berilgan ona tilimiz – o‘zbek tili kommunikativlikning asosiy vositasi hisoblanadi. U stimul (motivatsiya) berishning asosiy quroli hisoblanadi.

Talabalarining o‘zbek tilidagi nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish ham kichik-kichik maqsadlarga mos bilim, malaka va ko‘nikmalar ko‘rinishidagi parametrlar sifatida oldindan belgilab chiqilishi kerak. Masalan, dialogdagi replikalar mazmuni ham alohida birliklarni tashkil etadi. Nutqiy muloqot faqat savol-javoblardangina iborat emas, albatta: suhbatdoshni eshitish, javobdan so‘ng aks savol berish, savolni rad etish, suhbatdoshning savoliga aks savol bilan

murojaat etish, uni biror ish-harakatga undash, taklif qilish kabi turli shakllarda va mazmunda o‘tadi. Bunda turfa leksik va grammatik vositalardan, qolip gaplardan foydalaniladi. Shuning uchun nutqiy muloqotni (dialogik nutqni) o‘zlashtirish masalasiga keng yondashish talab etiladi.

Zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda biz bo‘lg‘usi soha mutaxassislarining ta‘lim mazmunidan kelib chiqqan holda til va nutq ko‘nikmalarining ular kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi asosiy yo‘l va talablarini quyidagi ko‘rinishlarda belgilaymiz:

1) sohaviy ilmiy-nazariy tayyorgarligi, o‘z faoliyatiga ijodiy yondasha oladigan mutaxassisning nutqiy kompetensiyaga ega bo‘lishi shart ekanligi;

2) ilmiy-tadqiqot va eksperimental faoliyat bilan shug‘ullanib, o‘z faoliyatidagi voqeliklarni yozma va og‘zaki tarzda nutq uslublarga xos tarzda ifodalay olishlari;

3) yangi texnologiyalarni joriy etishda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini sohaviy so‘z va terminlar asosida mukammal ifodalab, ko‘rsatib bera olishlari;

4) zamonaviy elektron axborot vositalari orqali vertual muloqotlarni aniq, sodda, ixcham va noaniq va mavhumlikka yo‘l qo‘ymay, milliy va kasbiy usullarda tushunarli tarzda ifodalab yoritib bera olishlari. Axborotning o‘zlari qo‘llagan so‘zlar orqali aniqligini, asosliligini yorita olishlari.

Xulosalar. Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan biz yashab turgan jamiyat hamda undagi har bir shaxsning o‘z ona tilini yaxshi bilish hamda uni amalda, ya’ni nutqiy vaziyat, muhit hamda turli tabaqadagi shaxslar o‘rtasida erkin, aniq, sodda va ravon darajada voqelantira olish darajasiga bog‘liq.

Talabalarining to‘g‘ri, ravon, mazmunli muloqot qila olish xususiyatini tarbiyalash va shu asosda ularning estetik didini o‘stirish, mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishda kommunikativ savodxonlikka erishish, talaba kompetensiyasini rivojlantirish muhim ishlardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son [Farmoni](#).
2. Inoyatov U.I. Teoreticheskie i organizatsionno-metodicheskie osnovy upravleniya kontrolya kachestva obrazovaniya v professionalnom kolledje. Diss. ...dokt. ped. nauk. – Tashkent, 2003. – S. 327.
3. Sobirova M.Y. Ona tili ta’limida antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari: Dis...ped.fan.dokt. – Namangan: 2023. – 256 b.
4. Abduquddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – Toshkent: Fan, 2005, – B. 57.
5. Xalikova Sh. Nutqiy muloqot samarasidagi sifatlar. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish muammolari. – Qarshi, 2022. – B. 558-560.
6. Yuldasheva D.N. Nutqiy muloqotda sukutning o‘rni / Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2020 №1, – B. 140.
7. Sobirova M. The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. Polish science journal (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.zo.o. "iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> str.98-105.
8. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>.
9. Sobirova M. Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. [Design Engineering](#). International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) SKOPUS 5288-5295 <http://thedesig nengineering.com/index.php/DE/issue/view/31>;
10. Sobirova M. Anthropocentric approach to language. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 07 (111), <http://t-science.org/axivDOI/2022/07-111.html> – P. 36-39.
11. Sobirova M. Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach. <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377> International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) OI:10.9756/INTJECSE/V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.
12. Sobirova M.Y. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi. Darslik. – Namangan: Arjumand media, 2023. – V.512.
13. Yo‘ldosheva D. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti: o‘quv qo‘llanma. – O`zR OO`MTV. – Buxoro: Buxoro DU, 2013.
14. Ibragimova G. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. falsafa doktori (PhD). – Toshkent, 2017. – B. 137.



15. Azimova I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi // Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. An’anaviy respublika ilmiy-amaliy konf. material. – Toshkent, 2019.
16. Ziyodullayeva G. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda qoidalar tizimidan foydalanish: muammo va yechimlar. Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2019. 7-son. – B. 15-16.
17. Murodova A. Ona tili ta’limida eshitib tushunish malakasining o’rni. Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2019-yil, 7-son. – B. 13.